



# AIFU



## Ingliz va o'zbek tillarida gipotaksemik qo'shma gaplarning ayrim o'ziga xos jihatlari

Madinabonu Shavkatovna Sodiqova  
Talaba

O'zbekiston Milliy universiteti  
Toshkent, O'zbekiston

E-mail: [madinabonusodiqova34@gmail.com](mailto:madinabonusodiqova34@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda ingliz va o'zbek tillaridagi gipotaksemik qo'shma gaplar xususiyatlari, tuzilishi, bog'lovchi vositalari haqida umumiy so'z yuritiladi va ikki tildagi ergashgan qo'shma gaplarning o'zaro o'xshash hamda ayrim farqli jihatlari chog'ishtirma tahlili olib boriladi.

**Kalit so'zlar:** gipotaksemik(ergashgan) qo'shma gap, subordinativ bog'lanish, bosh gap, ergash gap, bog'lovchi vosita, allomorfik jihat.

**Аннотация:** В данный тезисе проводится общее обсуждение особенностях, структуре и связях придаточных предложений в английском и узбекском языках, а также сравнительный анализ сходства и некоторых различий между придаточными предложений в двух языках.

241

**Ключевые слова:** придаточные предложения, сложноподчиненное предложение, подчинительные союзы, главное предложение, придаточное предложение, связки, алломорфный вид.

**Abstract:** In this thesis, there is a general discussion about the features, structure, and connectives of complex sentences in the English and Uzbek languages, and a comparative analysis of the similarities and some differences between complex sentences of the two languages is conducted.

**Key words:** complex sentence, subordinating conjunctions, the principal clause, the subordinate clause, connectives, allomorphic aspect.

Bilamizki, gipotaksemik qo'shma gaplar tilshunoslikning sintaksis bo'limida o'ziga xos ahamiyatga ega, shu bilan birga, jahon tilshunosligidagi dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. Ushbu mavzu bo'yicha ko'plab o'zbek va jahon tilshunos olimlari ilmiy ishlar olib borib, o'z qarashlarini bildirishgan. Jumladan, o'zbek tilshunos olimlaridan N. Mahmudov qo'shma gaplarni onomasiologik aspektda o'rgangan[1]. Bundan tashqari A. G'ulomov, M. Asqarova, A. Nurmonov, R. Sayfullayeva, B. Mingliyev, J. Bo'ronov, G'. Hoshimov, I. O'sarov va yana boshqa ko'plab olimlar ham ushbu sohada ishlab, ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Ushbu tezis aynan ingliz tilidagi gipotaksemik qo'shma gaplar, ya'ni complex sentence va o'zbek

tilidagi ergash gapli qo'shma gaplar hamda ularning ayrim farqli jihatlari tahliliga bag'ishlanadi.

Ma'lumki, o'zbek tilida tobelashtiruvchi bog'lovchilar yoki bog'lovchi vazifasidagi vositalar yordamida aloqaga kirishib, biri ikkinchisiga mazmunan tobe bo'lib, uni izohlab kelgan gaplar birikmasidan tashkil topgan qo'shma gaplar ergash gapli qo'shma gap deyiladi[2;133]. Ingliz tilida gipotaksemik qo'shma gaplar complex sentence atamasi bilan yuritilib unga shunday izoh beriladi: "**A complex sentence** consists of a principal clause and one or more subordinate clauses"[3;281] Ikki tilda ham ushbu turdagi qo'shma gap ikki qismdan ergash gap (**the subordinate clause**) va bosh gap (**the principal clause**) dan iborat bo'ladi. Ammo bizning e'tiborimizni tortadigan narsa shuki, o'zbek tilidagi gipotaksemik qo'shma gaplar, asosan, bir bosh va bir ergash gapdan iborat bo'ladi. Quyidagi misolga qaraylik: "A complex sentence may contain two or more homogeneous clauses coordinated with each other.

**Eng.** *They were all obstinately of opinion that the poor girl had stolen the moonstone, and that she had destroyed herself in terror of being found out.* (Collins)" [3;281]. Bu gapni o'zbek tiliga tarjima qilib ko'raylik:

**O'zb.** *Ular shunday qat'iy fikrda ediki, bechora qiz oy toshini o'g'irlab ketgan va bilib qolishligidan qo'rqib o'zini yo'q qilgan.* Biroq bu o'zbek tilida aralash murakkab qo'shma gap hisoblanadi. Bundan kelib chiqadiki, ingliz tilidagi complex sentence tushunchasi qisman kengroq ma'noga ega. Yana bir jihatga e'tibor qarataylik. "A subordinate clause may follow, precede, or interrupt the principal clause"[3;281] Bundan kelib chiqadiki, ingliz tilida ergash gap bosh gap o'rtasida ham kelishi mumkin. M: *It was dull and dreary enough, when the long summer evening closed in, on that Saturday night.* Lekin o'zbek tilida ergash gap bosh gapdan oldin yoki keyin keladi, uning o'rtasida kelish holati o'g'zaki nutqda ishlatilmasa, yozma nutqda odatda uchratmaymiz. "Clauses in a complex sentence may be linked in two ways: 1. **Syndetically** (by means of subordinating conjunctions or connectives; 2. **Asyndetically** (without a conjunction or connective)[3] O'zbek tilida ergash galar bosh gapga, asosan, **ergashtiruvchi bog'lovchilar**( chunki, toki, agar, go'yo kabi), **ko'makchili qurilmalar**(shuning uchun, shu tufayli va b. ), **yuklamalar**(-ki), **nisbiy so'zlar**( kim-o'sha, nima-shu kabi), **shart mayli** qo'shimchasi(-sa), deb so'zi va boshqa vositalar yordamida bog'lanadi. Bundan kelib chiqib ayta olamizki, ingliz tilida ergash va bosh gap o'zaro asyndetic bog'lanishi, ya'ni hech qanday bog'lovchi vositalarsiz bog'lanishi mumkin. Misol: *I wish you had come earlier.* Biroq o'zbek tilida hech qanday bog'lovchi vositasiz ergash gapni bosh gapga bog'lash mumkinmi yoki bu kollotaksemik (bog'lovchisiz) qo'shma gapning xususiyatimi? To'g'ri, o'zbek tilida odatda bu jarayon biror bog'lovchi vosita yordamida yoki eng kamida ergash gap kesimi ma'lum shaklda bo'lishi bilan boradi (shart maylida yoki ravishdosh, sifatdosh bilan ifodalangan bo'ladi va hokazo). Yana o'zbek va ingliz tillarida gipotaksemik qo'shma gap punktuatsiyasi ham biroz farq qilishi mumkin. Misol tariqasida o'zbek tilida ergashgan qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar doim ma'lum bir tinish belgisi, ya'ni vergul bilan ajratiladi. Ingliz tilida esa bu ergash gapning qaysi o'rinda kelganiga bog'liq.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ingliz va o'zbek tillaridagi gipotaksemik qo'shma gaplar zotan mohiyati jihatdan bir xil hamda yasalishi, turlarga bo'linishi o'xshash bo'lsa-da, ba'zi allomorfik jihatlarga ham egadir. Buni, asosan, ushbu turdagi qo'shma gap strukturasi, bog'lanish usullari hamda tinish belgilarining ishlatilishida ko'rishimiz mumkin ekan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. – T., 1995.
2. O'tkir Yusupov. Ingliz va o'zbek tillarining chog'ishtirma lingvistikasi. – T., 2013.
3. Kaushanskaya V. I. et al. A Grammar of the English Language. - L., 1963
4. Asqarova M. Hozirgi zamon o'zbek tilida qo'shma gaplar. –T., 1960, 6-7 b.
5. Abdurahmonov G'. A. Osnovi sintaksisa slojnovo predlojiniya sovremennova uzbekskovo literaturnovo yazika. ADD. -T., 1960. –S. 6
6. Nurmonov A, Iskandarova Sh. Umumiy tilshunoslik. Andijon, 2007.
7. Bo'ronov J. B. Ingliz va o'zbek tillari qiyosiy grammatikasi. -Toshkent: 1973.
8. O'zbek tili grammatikasi. T. II. Sintaksis. –T.: Fan, 1976.
9. G'aprov M, Qosimova R. Ingliz tili grammatikasi. -T., 2019.